

## GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARIDA IJOBIY VA SALBIY KONNOTATSIYALI BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

Isoqulova Shahzoda,  
NavDU Tillar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldashev Farrux Haqberdiyevich,  
Filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoira Guljamol Asqarova she'riyatida qo'langan ijobiy va salbiy konnotatsiyali so'zlar va ularning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilingan. Shoira she'rlarida qo'llanilgan sevgi, mehr, muhabbat, sadoqatni ifodalovchi birliklar poetik nutqning ta'sirchanligini oshirgan. Ijobiy konnotatsiyali so'zlarni qo'llash orqali shoiraning hissiy munosabati ifodalanganligi va badiiy tasvirning emotsional bo'yoqdorligi yuzaga kelgan. Maqolada shoira she'rlaridagi ijobiy baho semasiga ega so'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlari aniqlanib, ularning badiiy matndagi o'rni asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** konnotatsiya, ijobiy konnotatsiya, emotsional ekspressiv bo'yoq, pragmatika, salbiy konnotatsiya.

**Abstract.** This article analyzes the words with positive and negative connotations used in the poetry of the poetess Guljamol Askarova and their artistic and aesthetic function. The units expressing love, affection, affection, and loyalty used in the poetess' poems increased the expressiveness of poetic speech. The use of words with positive connotations expressed the poetess's emotional attitude and created an emotional coloring of the artistic image. The article identifies the semantic and pragmatic properties of words with positive evaluative semantics in the poetess' poems and justifies their role in the artistic text.

**Keywords:** connotation, positive connotation, emotional expressive coloring, pragmatics, negative connotation.

**Аннотация.** В данной статье анализируются слова с положительной и отрицательной коннотацией, используемые в поэзии поэтессы Гульямол Аскаровой, и их художественно-эстетическая функция. Единицы, выражающие любовь, привязанность, нежность и верность, используемые в стихах поэтессы, усиливали выразительность поэтической речи. Использование слов с положительной коннотацией выражало эмоциональное отношение поэтессы и создавало эмоциональную окраску художественного образа. В статье выявляются семантические и прагматические свойства слов с положительной оценочной семантикой в стихах поэтессы и обосновывается их роль в художественном тексте.

**Ключевые слова:** коннотация, положительная коннотация, эмоциональная экспрессивная окраска, прагматика, отрицательная коннотация.

**Kirish.** Badiiy matnning ta'sirchanligini ta'minlovchi eng muhim vositalardan biri emotsional ekspressiv birliklardir. Lirik asarlarda so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda muallifning hissiy holati va bahosi ham ifodalanadi. Shu jihatdan poetikada konnotatsiya tushunchasi alohida ahamiyatga ega. "Konnotativ ma'no – denotativ ma'noga qo'shimcha ravishda ekspressiv, uslubiy munosabat kabilarni ifodalovchi ma'no (ottenka)". Bu kabi ma'nolar badiiy matnlarda estetik zavq bag'shlaydi. "Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra bo'yoqdor leksemlar ijobiy bo'yoqdor leksema va salbiy bo'yoqdor leksemaga bo'linadi". O'zbek she'riyatida ijobiy konnotatsiyali so'zlar poetik tasvirning badiiy-estetik qiymatini

oshiradi. “Ijobiy bo‘yoqdor leksema so‘zlovchining borliq hodisasiga munosabatini ifodalaydi va ular semalarida tegishli ifoda semlari ijobiy bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** “Zamonaviy o‘zbek she‘riyatining yorqin vakilasi Guljamol Asqarova ijodida ham ijobiy leksik birliklar keng qo‘llangan. Quyida shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Tuproq bo‘lib yo‘qolsa tanim,  
Gul bo‘lib gulzorga qo‘shilsam.  
Hech bo‘lmasa eng so‘ngi onim,  
Mumtoz Mahal kabi sevilsam. (“Orzu “14-bet)

Mazkur she‘riy parchada ijobiy konnotativ semantik ma‘no aks etgan birliklar – *gul*, *gulzor*, *Mumtoz Mahal* leksemalari matnning emotsional-ekspressiv va estetik ta‘sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Xususan, *gul* leksemasi o‘zbek tilining lingvopoetik tadqiqotlarida *tabiiy go‘zallik*, *nozikklik*, *poklik hamda estetik yetuklik* konseptlari bilan bog‘liq bo‘lgan ijobiy baholovchi semantik komponentlarni o‘zida mujassam etadi. She‘riy kontekstda ushbu birlik subyektning ideal holatga intilishi va go‘zallik bilan uyg‘unlashish istagini ifodalaydi. *Gulzor* leksemasi esa ramziy makon, estetik obraz sifatida namoyon bo‘lib, u go‘zallik jamlangan joy, osoyishtalik, umid va ruhiy iliqlik semalarini faollashtiradi. Bu birlik matnda individual mavjudlikning estetik makonga qo‘shilishi orqali ramziy yuksalish g‘oyasini kuchaytiradi. Mumtoz Mahal antroponimi esa tarixiy-madaniy presedent birlik sifatida qo‘llanilgan. U sadoqat, abadiy muhabbat, qadrlanish va yuksak hurmat kabi ijobiy aksiologik baholarni uyg‘otadi. Mazkur nom orqali lirik qahramon sevgi va qadrlanishning oliy darajasida e‘tirof etilish istagini konseptual jihatdan ifodalaydi. Demak, tahlil qilinayotgan she‘riy parchada ko‘rsatilgan leksik birliklar ijobiy konnotatsiya asosida matnning aksiologik maydonini shakllantiradi hamda uning hissiy-estetik ta‘sirchanligini kuchaytiradi.

Umidlandim, ko‘p umidlandim,  
Manglayda baxt dastxati bordir.  
Sendan ayrildim-ku bunda ham,  
Xudoyimning xizmati bordir.

(“Baxt dastxati” 28-bet)

Ushbu she‘rning ohangi biroz qayg‘uli bo‘lishiga qaramasdan ijobiy konnotatsiyali so‘zlar, ya‘ni *umidlandim*, *baxt dastxati*, *Xudoyimning hikmati* birikmalari orqali shoiraning kelajakka bo‘lgan umidi va doim yaxshilikning kelishiga bo‘lgan ishonchi ifodalangan.

Umidlandim so‘zi “umid”, “umidlanmoq” leksemalari orqali shoira kelajak uchun ijobiy tuyg‘u, ishonchni yuzga chiqargan. Bu so‘zga oddiygina “kutdim “ ma‘nosini emas, balki chuqur ruhiy-psixologik ma‘no yuklagan. Ushbu so‘z orqali pragmatik ma‘no ham anglashiladi. Hali yaxshi kunlar kelishiga, baxt unga kulib boqishiga bo‘lgan ishonchni, orzuni va umidni tushunishimiz mumkin. Xuddi shu birlik orqali boshqa bir ma‘no –

pressupozitsion ma'noni ham anglashimiz mumkin. Yaxshi kunlar kelishiga bo'lgan umid va orzu lirik qahramonning boshidan og'ir kunlar o'tganligini, endi shu kunlarni unutmochi ekanligini bilishimiz mumkin.

Xudoning hikmati birligi ijobiy konotatli so'z har qamday salbiy hodisani ijobiy ma'noga ko'chiradi. Bu birikma o'zida sabr, tasalli, umid, taqdirga ishonch ma'nolarini mujassamlashtirgan. U she'rdagi ayrilqni fojea qilib emas, balki falsafiy hodisa sifatida anglanishiga xizmat qilgan.

Ko'ksimdagi gular, alvido,  
Nolalarim Tangrimga borsin  
Ikki dunyo men deb kuying  
Sochlaringiz men deb oqarsin

(“Duo”she’ri 30-bet)

Ushbu she’rda ijobiy baho ifodalagan so‘zlar “gular”, “Tangrim”, “Sochlaringiz men deb oqarsin” birliklari orqali shoiraning iliq his-tuyg‘ulari, mehr va sevgini qadrlashi ifodalangan.

“Sochlaringiz men deb oqarsin birligi orqali go‘zallik va sevgi o‘zgacha tarzda ifodalab berilgan. Soch shunchaki tana a‘zosi emas, sevgining va o‘zaro bog‘lanishning ramzi. Shoira bu birlikning pragmatik ma‘nosi orqali o‘quvchiga o‘z sevgisining qay darajada kuchli ekanligini mubolag‘a orqali tasvirlab bergan. Haqiqiy, hayotiy hodisa soch oqarishiga baddiy ma‘no yuklagan. “Soch oqarmoq” oddiy qarish, tashvish belgisi, ammo “men deb” birikmasi bilan qo‘llash orqali hissiy kuchni oshirgan.

**Muhokama va natija.** Guljamol Asqarova lirikasida ijobiy konnotatsiyali so‘zlar matnga hissiy rang-baranglik bag‘ishlaydi. Ular she’rga faqat lug‘aviy ma‘no qo‘shibgina qolmay, aslida muallifning nima demoqchiligini ifodalaydi. Tahlil qilingan she’rlar shuni ko‘rsatadiki, “gul”, “bulbul”, “sevilsam”, “tangrim” kabi so‘zlar o‘quvchiga iliqlik romantik kayfiyat bilan bir qatorda ijobiy his-tuyg‘u uyg‘otadi. O‘quvchini o‘ylashga, mulohaza qilishga undaydi.

Guljamol Asqarova she’riyatida ijobiy konnotatsiyali so‘zlar bilan bir qatorda salbiy emotsional leksika ham ko‘zga tashlanadi.

Salbiy emotsional leksika bu – nutqda insonning salbiy hissiyotlari, salbiy fikrlarini ifodalovchi so‘z va iboralardir. Shoira o‘z she’rlarida ushbu so‘zlardan foydalanishining sababi, aytilayotgan fikrga o‘z shaxsiy munosabatini bildirish orqali alam, g‘azab, nafrat, achinish kabi qarashlarni ifodalaydi. Shoira ijodida inson ruhiyati, ayol qalbi, jamiyat muammolari va norozilik kayfiyati ifodalanadi. Ijodkor poetikasida ayol dardi, sog‘inchi, armoni, iztiroblari kabi emotsional holatlar tasvirlangan.

Nodo‘st chiqdi bizga bu dunyo,  
Yo kech keldik, yo erta keldik.  
Kuzgi gulshan gullari kabi,

Kech gulladik, erta ekildik.

(Kuzgi gul, 45-bet)

Ushbu she'rda ifodalangan "nodo'st", "kech kelmoq", "erta ketmoq", "erta ekildik" iborolari orqali muallifning shaxsiy bahosi ifodalangan. "Nodo'st dunyo" metaforasi orqali dunyoning adolatsiz ekanligi, hech kimning istaklari bilan "hisoblashmasligi" anglashilgan. Nafaqat dunyo, balki undagi insonlarning ham xiyonatkor ekanligi, ular insonga hech qachon do'stlik qilmasligi semalarini ta'kidlaydi.

"Kech keldik", "erta keldik" antiteza (zidlik) orqali hayotning murakkab ekanligi yoritilgan. Ushbu birlar orqali salbiy mazmunga ega vaqt ifodalangan. Hayot imkoniyatlarini boy berish, o'zi istagan orzularga ulgurmaslik kabi armon va afsus munosabatlari bayon etilgan.

"Erta ekildik" – hayot sinovi, vaqt bilan bog'liq metafora orqali qiyinchilik va azoblarga ertga duch kelish, hali tayyor bo'lmagan, ammo qahramonni ruhan shakllantirgan va kuchli qilgan vaziyat. Biz bu birlik orqali qayg'u, o'kinch bilan bir qatorda sabrning ham uyg'unligini ko'rishimiz mumkin.

Yozga, qishga ko'nikadi odamzod

Har ne ishga ko'nikadi odamzod

Sadafdek oq tishlari tashlab ketsa

Temir tishga ko'nikadi odamzod

Misradagi "qish", "ko'nikadi", "temir tish" kabi so'z va iboralar orqali muallif tasvirlayotgan voqea-hodisa va obrazlarga nisbatan bildirgan hissiy emotsional qarashning kontekstual usuli qo'llangan. "Kontekstual usulda uslubiy bo'yog'i yo'q bo'lgan so'z ma'lum kontekst yoki nutqiy muhit ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga aylantiriladi". "Qish" bir qarashda oddiy to'rt fasldan biri sifatida tushuniladi. Ushbu misrada qish fasliga boshqa salbiy ma'no yuklangan. Qish-sovuqlik, qiyinchilik, iztirob ramzi sifatida qo'llangan. Insonlarning boshidan o'tgan og'ir sinovli kunlar, mashaqqatlarni ifodalashga xizmat qilgan.

"Ko'nikadi" fe'li bu yerda oddiy moslashish, ko'nish emas majburan sabr qilish, chidash, taqdirga tan berish. Inson yashashda davom etar ekan hayotdagi har qanday vaziyatga ko'nikadi. Xoh u bizning istaklamizga mos bo'lsin, xoh xohishlarimizga zid.

"Temir tish" metaforasi orqali salbiy emotsional fojia obraz ifodalangan. Inson o'zini o'ylamasdan o'zini o'qqa-cho'qqa urib, eng katta boyligi bo'lgan sog'ligidan ayrilishi ko'rsatib berilgan. Temir tabiatdagi eng mustahkam metallardan biri. Odamzod bu hayotda yashar ekan hayot sinovlari, qiyinchilik va muammolar insonni temirdan-da, mustahkam qilib tarbiyalaydi, hatto tishlarini temirga aylantiradi.

**Xulosa.** Bir so'z bilan aytganda shoira Guljamol Asqarova ijodida ijobiy va salbiy emotsional leksikalarning birdek qo'llanishi baddiy nutqning ekspresivligini oshirishga, ta'sirini kechaytirishga xizmat qilgan. Emotsional leksika va

muallifning shaxsiy bahosi o'quvchi qalbiga kuchli ta'sir etadi, asar anglanilishini osonlashtiradigan vositalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G. Asqarova : "Uyg'otuvchi alla", 2007
2. R. Sayfullayeva, B.Mengliyev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". – Toshkent, 2009
3. H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. – "Toshkent, 2005
4. Z.Xolmonova. "Tilshunoslik nazariyasi". – Toshkent, 2020

